

**KOMMUNIKATIV TILSHUNOSLIKNING ASOSIY YO‘NALISH VA
TAMOYILLARI****Tursunmuhammedova Soraxon Sayfullo qizi****Zokirova Adiba Rustam qizi****Tog‘ayeva Umidabonu Farxod qizi***Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1-bosqich talabalari***Ilmiy rahbar: Turg‘unpo‘latov Diyorbek Ro‘zmamat o‘g‘li***Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi***Annotatsiya:**

Ushbu maqolada tilshunoslikda ro‘y berayotgan paradigmalarning almashinuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, lingvistik pragmatika, psixolingvistika, sociolingvistika va lingvokulturologiya kabi sohalarining nazariy asoslari va o‘zaro aloqadorligi ko‘rib chiqiladi. Tilning nafaqat aloqa vositasi balki, inson tafakkurini yuksaltiruvchi murakkab vosita ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, lingvistik pragmatika, kommunikativ tilshunoslik, sociolingvistika, pragmalolingvistika, matn tilshunosligi, lingvokulturologiya.*

Annotation:

This article analyzes the paradigm shift taking place in linguistics. The theoretical foundations and interrelationships of fields such as linguistic pragmatics, psycholinguistics, sociolinguistics, and linguoculturology are also examined. It is analyzed that language is not only a means of communication, but also a complex tool that enhances human thinking.

Keywords: *Psycholinguistics, linguistic pragmatics, communicative linguistics, sociolinguistics, pragmalinguistics, text linguistics, linguoculturology.*

Аннотация:

В данной статье анализируется сдвиг парадигмы, происходящий в лингвистике. В статье также рассматриваются теоретические основы и взаимосвязи таких областей, как лингвистическая прагматика, психолингвистика, социолингвистика и лингвокультурология. Анализируется, что язык является не только средством коммуникации, но и сложным инструментом, обогащающим человеческое мышление.

Ключевые слова: *психолингвистика, лингвистическая прагматика, коммуникативная лингвистика, социолингвистика, прагмалингвистика, лингвистика текста, лингвистическая культура*

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot almashinuvi va ijtimoiy muloqotning murakkablashishi tilshunoslik fanining metodologik apparatini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. XX asrning ikkinchi yarmiga qadar tilshunoslik asosan strukturalizm g‘oyalari ta’sirida tilni ichki tizim, statik belgilar iyerarxiyasi sifatida tadqiq etgan bo‘lsa, zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma yetakchi o‘ringa chiqdi. Ushbu paradigmaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri — kommunikativ tilshunoslikdir.

Kommunikativ tilshunoslik tilni shunchaki mavhum qoidalar majmuasi emas, balki jonli muloqot jarayonida amalga oshuvchi, ijtimoiy voqelikni shakllantiruvchi dinamik faoliyat sifatida talqin qilindi. Ushbu yo‘nalishning paydo bo‘lishi tilshunoslikda lisoniy birliklarning formal tahlilidan funksional tahlilga o‘tilganligini anglatadi. Endilikda tadqiqot markaziga til birligi emas, balki o‘zining intensionalligi (maqsadliligi) bilan ajralib turuvchi "lisoniy shaxs" va uning muloqot strategiyalari qo‘yildi. Kommunikativ tilshunoslik-odamlarning niyat, his-tuyg‘ularini ifodalashda og‘zaki va yozma usullar orqali qanday yetkazishini o‘rganadi. Kommunikativ tilshunoslikning bir muhim tarmog‘i — bu muloqotning milliy-madaniy xususiyatlaridir. Har bir tilda o‘ziga xos "muloqot ssenariylari" mavjud bo‘lib, ular pozitsiya darajasida shakllangan bo‘ladi. Masalan, o‘zbek muloqot madaniyatidagi "andisha" yoki "lutf" kabi tushunchalar lingvistik pragmatikaning amaliy ifodasidir.

Lingvistik pragmatika — bu tilshunoslikning eng qiziqarli va zamonaviy sohalaridan biri bo‘lib, u til birliklarining kontekstda (matnda) qanday ma’no kasb etishini o‘rganadi. Agar semantika so‘zning lug‘aviy ma’nosini o‘rgansa, pragmatika so‘zlovchining o‘sha so‘z orqali nima demoqchi ekanligini (yashirin niyatini) tadqiq qiladi. Masalan, gap aytilishidan oldin ikkala tomon (so‘zlovchi va tinglovchi) bilishi shart bo‘lgan ma’lumot. "Qizingiz qachon keladi?" deyish uchun tinglovchining qizi borligi (oldindan ma’lum fakt asosida bilish) hisoblanadi. Bundan tashqari, so‘zlovchi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan, lekin suhbat mazmunidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa. Masalan, suhbatdoshning "Xonada xavo yetishmayapti" deyishi, pragmatik jihatdan "Derazani oching" degan iltimosni anglatadi. Xususan, lingvistik pragmatika lisoniy shaxsning muloqot jarayonidagi xulq-atvorini, uning lisoniy vositalardan maqsadli foydalanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi sohadir. Uning markazida "so‘zlovchi-matn-ma’no" zanjiri turadi. Hozirgi zamon tilshunosligida katta mavqega ega bo‘lgan kommunikativ tilshunoslik o‘z ichiga matn tilshunosligi, sociolingvistika, psixolingvistika va lingvistik pragmatika kabi sohalarni oladi.

Matn tilshunosligi — tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lib, u gapdan yuqori bo‘lgan lisoniy butunlikni — matnni uning strukturaviy, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi nuqtai nazaridan o‘rganadi. Hozirgi tilshunoslikda matn atamasiga turlicha ta’riflar berilmoqda. Masalan, tilshunos olim P.Gironing fikricha, matn o‘zaro bog‘langan birliklar bo‘lib, bu

butunlikni tashkil etuvchi belgilar uslubiy taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib yagona sistemani tashkil qiladi. Matn tilshunosligida matn mazmuni va matn ma‘nosi atamaları o‘zaro farqlanadi. Ma‘lum bir matndan o‘rin olgan ma‘lumot yoki axborot matnning mazmunidir. Matnning ma‘nosi esa matn birliklari (gap, sintaktik butunlik) ga xos axborotdir. Matn nutqiy faoliyatning bir butun mahsulidir. Uni ana shunday mahsulot ekanligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi kategoriya matn tilshunosligida integraciya (lotincha to‘ldirmoq) kategoriyasi deb yuritiladi. Integraciya kategoriyasi matnning yakunlanishi bilan bog‘liq kategoriya sifatida ko‘rinadi.

Sotsiolingvistika - tilshunoslikning til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ijtimoiy omillarning tilning amal qilishi va rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganadigan sohasidir. Sotsiolingvistika o‘z ichida ikkiga: mikrosotsiolingvistika va makrosotsiolingvistikaga bo‘linadi. Mikrosotsiolingvistika-kichik guruhlar o‘rtasidagi kundalik muloqotni, nutqiy etiketni va shaxslararo munosabatlarda tilning rolini o‘rganadi. Makrosotsiolingvistika esa butun bir jamiyat yoki davlat miqyosidagi til jarayonlarini o‘rganadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, XXI asr tilshunosligi tilni shunchaki belgilar iyererxiyasi sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik va kommunikativ jarayonlarning mahsuli sifatida tadqiq etmoqda. Kommunikativ tilshunoslik va uning tarkibiy qismlari bo‘lgan pragmatika, sotsiolingvistika hamda matn tilshunosligi o‘zaro uzviy aloqadorlikda lisoniy shaxsning muloqotdagi o‘rnini belgilab beradi. Tilshunoslikdagi yangi yondashuvlar inson tafakkuri va ijtimoiy voqelikning o‘zaro munosabatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishlarni o‘zbek tilshunosligi misolida tadqiq etish, milliy muloqot strategiyalarimizning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslashda muhim istiqbollarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – 240 b.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 352 b.
3. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2009. – 180 b.
4. Mo‘yudinov Q.A., Turg‘unpo‘latova G.A. Tilshunoslikka kirish: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Renesans sari, 2024. – 120 b. (87–89-betlar).
5. Nurmonova A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent, 2001. – 150 b.
6. Ziyonet. – Elektron resurs. – URL: <https://www.ziyonet.uz>